

MEDIATA'LIM - YOSHLARNI SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING MUHIM OMILI

Toshtemirov Rustam Abdurashidovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

rustamtoshtemirov1985@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mediata'limning yoshlar ta'limiylarini tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyati, mediata'limning o'ziga hos hususiyatlari va uni tashkil etish jarayonida qo'llaniladigan usullar va samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: axborot, media, mediata'lim, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, pozitsiya.

МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОТ НЕГАТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль медиаобразования в образовательном процессе молодежи, специфика медиаобразования, а также методы и эффективность его организации.

Ключевые слова: информация, медиа, медиаобразование, информационная безопасность, медиаграмотность, медиакультура.

MEDIA EDUCATION IS AN IMPORTANT FACTOR TO PROTECT YOUTH FROM NEGATIVE INFORMATION

Abstract

This article discusses the role of media education in the educational process of young people, the specifics of media education and the methods and effectiveness of its organization.

Keywords: information, media, mediaeducation, information security, medialiteracy, mediaculture.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta’limni rivojlanishini “media” (ya’ni: televidenie, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin.

Axborot makonini globallashuvi va uning “ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, kontseptsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo’lmoqda.

XXI asr, ya’ni “axborot asrida” axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo’llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo‘lib bormoqda. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta’sirida o‘quvchining mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadriyatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari o‘quvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo’llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko‘nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda. Boz ustiga jahondagi ta’lim amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o’tgan asrning 70- yillaridayoq boshlangan va, pedagogika fanida o‘ziga xos yo‘nalish – medaiata’lim paydo bo‘lib, shakllanib bormoqda. Bugungi kunda endi shakllanayotgan yoshlarni turli axborotlarning salbiy ta’siridan himoya qilish va ularning sog‘lig‘ini asrash muammosi dunyodagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga atrofini o‘rab turgan olam haqidagi ma’lumot beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televidenie, radio, global kompyuter tarmoqlari va boshqalar kiradi. Bugungi yosh

avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta'sir ko'rsatmoqda, uni majoziy ma'noda "axborot yomg'iri" yoki "axborot seli" deb atash mumkin. Bugungi axborot makonidagi kutilmagan obrazlar, zamonaviy, yorqin tasvirlar, syujetlar va xatti-harakatlar hali ongi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarni albatta ko'proq o'ziga jalb qiladi, chunki yosh xususiyatlari va hayotiy tajribaga ega bo'lmanligi sababli, bola ulkan ma'lumotlar oqimini qabul qilish va tushunish uchun hali tayyor emas hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchaga ma'lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor oldida o'tkazadigan vaqtлari mактабда yoki boshqa ta'lim muassasalarida o'tkazadigan vaqtлaridan ancha ko'proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shouлar, saytlarni doimiy ko'rishlariga ko'proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'pincha tushunmaydi. Agar e'tiborimizni qaratsak, faqat ko'ngilochar saytlar, turli shouлarni tanlaydigan va ko'radigan yoshlар deyarli yurtimizda va dunyoda bo'layotgan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko'rishdan o'zlarini chetga olishadi.

Hozirda urf bo'lgan majoziy iboraga ko'ra, inson o'zining "axborot pillasi"ga o'ralib olishi, o'zini real dunyodan ajratib qo'yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin [1].

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarining tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya obyekti bo'lib ko'proq yoshlар tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to'liq idrok etmaydilar, chunki ular hali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarning ma'nosini yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar,

o‘zlarini ularning ta’siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko‘pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o‘qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li sifatida maktab va ta’lim muassasalarida mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata’lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o‘rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o‘zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o‘zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo‘nalishdir.

Mediata’limni o‘rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

- o‘zi bilan qabul qilinuvchi axborot o‘rtasida “psixologik masofa” o‘rnatish mexanizmlarini yaratish, o‘zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini egallah;
- audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallah; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish;
- amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o‘zlashtirish, bu esa ularnga axborotlarning mazmuni anglashga va o‘zini namoyon etish imkonini beradi.

Mediata’limning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun quyidagi faoliyat yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

- maktabda shakllangan bilimlar tizimiga sinfdan tashqari qabul qilinadigan axborotni kiritish, bu bilimlardan turli mediadagi axborotlarni idrok etish va ularni tanqidiy tushunishda foydalanish;
- axborotni talqin qilish, uning mohiyatini anglash, uni maqsadli yo‘naltirish, axborot tarqalishining maqsadi, axborotlardagi yashirin ma’nolarga nisbatan shaxsiy

munosabatini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; kerakli ma'lumotlarni turli manbalardan topa olish, belgilangan mezonlar asosida ularni tizimlashtira olish;

axborotlarning kommunikativ jihatdan o'zaro ta'sir maqsadini va mo'ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hajmini, shaklini, belgilari tizimini, tashuvchisini o'zgartira olish;

- o'z fikrlari yuzasidan bahslasha olish, olingen ma'lumotlarda kamchiliklar va ma'nolarni topa olish va ularni tuzatish bo'yicha takliflar kirta olish;

- axborotlardagi turli muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish va ularning har biriga «yoqlash» va «qarshi» bo'lgan asosli dalillar keltira olish;

- axborot xabarlari o'rtasida maqsadli assotsiativ va amaliy aloqalarni o'rnatish; axborot xabaridagi eng muhim jihatlarni ajrata olish.

Hozirgi vaqtida kino va videofilmlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va turli teledasturlarning parchalari asosan ko'rish tamoyilini amalga oshirish sifatida qo'llaniladi. Biroq yoshlarga qaratilgan elektron, audiovizual, bosma medialarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishlardagi maqsadlarda yetarlicha foydalanilmayapti, ammo ular insonning xulq-atvor hususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va yoshlarning axborot xulq-atvor hususiyatlarini rivojlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish sharoitda albatta, media ta'limning o'ziga hos pedagogik salohiyatini hisobga olish muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglar va ota-onalar tomonidan olib boriladigan turli xil ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirlarni yoshlar turlicha qabul qilishlari mumkin: ularga xushmuomalalik bilan muloqot qilish natijasida paydo bo'ladigan ijobiy munosabatlardan so'ng ular o'zining xatti-harakati haqida o'ylaydi va faollik ko'rsatib, o'zini takomillashtirish va rivojlantirishga intiladi. Ana shunda bunday tarbiya usuli haqiqatan ham uning shaxsiy ijobiy hususiyatlarini shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar ota-onalar, tarbiyachilar va

pedagoglarning tarbiya usuli ular bilan yoshlar o‘rtasida ijobiy munosabat o‘rnatmasa, bu usul yoshlarning psixologik rivojlanishida ijobiy rol o‘ynamaydi va hatto ular tomonidan ma’lum bir qarshilikka ham uchrashi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi tarbiyaviy ta’sirning nofaol obyekti hisoblanmaydi. Ularda bunday ta’sirlarga nisbatan ichki pozitsiya shakllanadi, ularda ushbu ta’sirlarga nisbatan o‘zini takomillashtirish (rivojlantirish), o‘z ustilarida faol ishlashlari yoki passiv bo‘lib qolishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta’lim insonning o‘z ustida ishlashdagi faolligini ichki rag‘batlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatsagina, uning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlash mumkin.

Ta’lim-tarbiya shaxsning kamol topishida, uning o‘z ustida ishlashidagi faolligini ichki jihatdan rag‘batlantirishga ota-onalar, tarbiyachi hamda pedagoglar tomonidan ijobiy ta’sir ko‘rsatgandagina bu usullar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan quyidagi hususiyatlar ya’ni o‘sib kelayotgan shaxsning faolligi va shaxsiy intilishi, o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan istagi, pirovardida uning shaxsiy rivojlanishini belgilaydi[2].

Yoshlarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarida mediata’limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o‘zini namoyon qilish uchun qo‘srimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o‘qish jarayonida o‘zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o‘zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta’minlanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni to‘g‘ri tanlash ta’lim-tarbiya vazifalarini yanada to‘liq

amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o‘zлари ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

Yoshlarni medialardan to‘g‘ri foydalanishga o‘qitishdagi samarali uslubiy usullarini quyidagi asoslar bo‘yicha tasniflash mumkin:

Tarbiyaviy ishlar turlari bo‘yicha (axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, oilaviy va boshqalar). Bu tasnifni fin olimi Z.Tell ta’biri bilan aytganda, “mediaxabarlar fanlararo va ko‘p tarmoqli xususiyatga ega bo‘lishi” bilan murakkablashadi[3]. Masalan, maktab o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalarini hal qilish maqsadida medianing badiiy yoki multfilmlarni namoyish etish orqali ulardagi estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiramiz, chunki biz san’at asarini axborot manbai deb hisoblaymiz.

Global kompyuter tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar bo‘yicha. Axborotdan foydalanishning turli xil imkoniyatlarini izlash va joriy etish yoshlarga media sohasi bilan yaxshiroq tanishishiga va ta’lim muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Mediata’limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalangan holda, yoshlar ongi media vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish va ularning bu boradagi qobiliyatini rivojlantirish maqsadida samarali zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda, jumladan:

- talabalarni media vositalar va muassasa kutubxonasidan axborotlarni axborot markazi sifatida mustaqil izlab topish va foydalanish qobiliyatini shakllantirish, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini bir necha usulda topish, mavjud vaziyatni modellashtirishga o‘rgatish, ya’ni, yoshlarni vaziyatdan chiqish yechimning alternativ tanlovinci to‘g‘ri topish vazifasini oldiga qo‘yadi. Ushbu xarakatlar usulini tanlash yoshlarning o‘zida qoladi, lekin shu bilan birga u o‘z harakatlarini asoslashi lozim bo‘ladi;

- ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda o‘qilgan maqolalar, tele va radio hikoyalar muhokamasi;

- turli xil media vositalaridan foydalangan holda o‘z ma’lumotlarini tayyorlashga o‘rgatish. Bunda media usullaridan qaysi birini tanlash unchalik muhim emas (oddiy qog‘oz varag‘idan Internetdagi veb-saytgacha): chunki zamonaviy yoshlar murakkab

texnik vositalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi, ya’ni, kameralar, videokameralar, kompyuterlar, telefonlar. Ushbu zamonaviy texnikalardan foydalanishda topshiriqni shunday tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladiki, u fanni o‘qitish va tarbiya vazifalarini o‘zida mujassamlashtirsin;

- bir vaqtning o‘zida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil uslubiy usullardan foydalanishga imkon beradigan Internetning axborot resurslaridan foydalanish.

Yoshlarning Internetga qiziqishi to‘rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi:

- turli xildagi ma’lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi;
- keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi;
- o‘zi haqidagi ma’lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma’lum bir “obraz”ni yaratish imkoni;
- uzatilayotgan ma’lumotlarning anonimligi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mediata’lim jarayonida yoshlarni Internet bilan muloqot jarayonida xavfsizlikni ta’minlashning muhim qoidalari bilan tanishtirish zarur: barcha shaxsiy ma’lumotlarni (ismi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili, ota-onalarning shaxsiy ma’lumotlari) oshkor qilmaslik; media tarmoqlardagi begonalarga ishonmaslik: Internetda har kim o‘zini kimligini ochiq ko‘rsatmasligi, aslida kimligini sir tutishi mumkin va hokazo.

Mediata’limning asosiy maqsadi sifatida yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, ularda mediamadaniyatini shakllantirish, medialarning salbiy kontentlaridan himoya qilish, manipulyatsiya qurbaniga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va zamonaviy dunyoda axborotlarni ongli ravishda izlash, talqin qilish va qo’llash, dunyoqarashini kengaytirish orqali kommunikativ ko‘nikmalarini va mediakompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarni ta’limning

oldiga qo‘yishdir. Buning uchun xar bir ta’lim maskanlarida bosqichma-bosqich mediata’limni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Зазнобина, Л.С. Медиаобразование в школе: как выжить в мире СМИ [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.mediaeducation.ru>.
2. Харламов, И.В. Педагогика / И.В. Харламов. - Минск. Высшая школа, 2004. -195 с.
3. Tella S. Media nykypaivan koulutuksessa. // An electronic files:
4. <http://www.helsinki.fi/tella>.
5. <https://www.ziyonet.uz/ru>
6. <http://edunet.zn.uz/2007/09/27/mediaobrazovanie/>